XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 17 - yanvar VI-61-1-10-141-K/23 Parkent tumani hokimligi

2023-yil uchun Parkent tumani mahalliy budjeti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Parkent tuman mahalliy budjetini qabul qilish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813son Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining “Toshkent viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to`g`risida”gi Qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyati Parkent tumani (keyingi o‘rinlarda - tuman deb ataladi) budjetiga Toshkent viloyati budjetidan ajratilgan:

Tuman mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 114 139 635,0 ming so‘m va xarajatlari 202 697 126,0 ming so‘m prognoz qilinganligi;

tartibga soluvchi budjetlararo transfert 88 557 491,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi;

tuman budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar 1 223 100,0 ming so‘m miqdorda tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman budjetidan 2023-yilgi budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

Umumdavlat soliqlardan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me`yori 3-ilovaga, tuman budjetiga 2023-

yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi transfert miqdori 4-ilovaga, tuman budjetida yo`l qo`yiladigan eng kam mablag` miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha, yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsietlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 6-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo`yicha mol-mulk soliqlari uchun qo`llaniladigan mutloq miqdori 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023-yil uchun Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 912 237,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armasi tuman budjeti tasdiklangan umumiy xarajatining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Tuman budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini tuman budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

7. Qonunga asosan 2023-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari.

b) Viloyat budjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lig‘icha o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 64 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 64 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

8. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq byudjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Tuman hokimligining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan ko‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy budjetining ko‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Y. Abduxamidov), Moliya bo‘limi (J. Saydig‘aniyev), Davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev) va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillilar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R. Ro‘ziboyev), Kadastr agentligi bo‘limi (F. Jo‘raboyev) 2023-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev):

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

14. Majburiy ijro byurosi tuman bo`limi (Q.Karimov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvatlash bo`limi (R.Tojiboyev), tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

16. Tuman irrigatsiya bo’limi (T.Salimov) va viloyat davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

17. Tuman ichki ishlar bo`limi (A.Aliasqarov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo`limi (D.Halilov), tuman Adliya bo`limi Davlat xizmatlari markazi (G.Rohmonqulov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

18. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

Tuman hokimligi:

19. Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman Xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

20. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Y. Abduxamidov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli bo`lim boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21. Tuman hokimligi matbuot xizmati:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini “Parkent tongi” gazetasida va www.parkent-tum.toshvil.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining moliya - iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i Y. Abduxamidov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **Sh.Shoaxmedov**

Xalq deputatlari Parkent tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-61-1-10-141-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Parkent tuman budjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Daromad turlari	Jami (ming so‘mda)	Ajratma me`yori
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	4 369 064,0	63%
2.	Korxonalar aylanmasidan soliq	7 006 310,0	50%
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	27 269 810,0	50%
4.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 050 000,0	100%
5.	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	10 187 345,0	100%
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 704 252,0	100%
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 267 035,0	100%
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 981 469,0	85%
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 551 861,0	100%
10.	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 805 090,0	100%
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	341 614,0	100%
12.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	346 921,0	100%
JAMI		**85 880 771,0**	
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**28 258 864,0**	-
13.	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	11 432 159,0	-
14.	Mobil aloqa xizmati	4 903 731,0	-
15.	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	11 922 974,0	-
JAMI DAROMAD		**114 139 635,0**	**-**

Xalq deputatlari Parkent tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-61-1-10-141-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Parkent tumani budjetidan 2023-yilgi budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	Summa (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, jami		**202 697 126,0**
1.	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**7 105 957,0**
2.	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**16 739 135,0**
3.	**Tibbiyot birlashmasi**	**82 767 671,0**
4.	**Madaniyat bo‘limi**	**2 609 378,0**
5.	**Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**4 340 558,0**
6.	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**36 330 898,0**
7	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o`tab bo`lgan fuqarolarga (Dastlabki ijtimoiy moddiy yordam paketi)**	**46 000,0**
8.	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**189 156,0**
9.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**12 169 187,0**
10.	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 356 533,0**
11.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 068 412,0**
12.	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1 130 208,0**
13.	**Davlat boshqaruv idoralari**	**20 992 178,0**
14.	**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**4 378 433,0**
15.	**Zahira jamg‘armasi**	**1 912 237,0**
16.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**9 561 185,0**

Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-61-1-10-141-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me`yori

T/p	Shahar va tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i	Benzin, dizel yoqilg`isini va gazni yakuniy iste`molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz solig`i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to`lanadigan soliq bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo`yicha yer qa`ridan foydalangalik uchun soliq (yirik soliq to`lovchilar tomonidan to`lanadigan qurilish materiallari bo`yicha yer qa`ridan foydalangalik uchun soliq bundan mustasno)
1	Parkent tumani	50	63	100	85	100	50	100	100

Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-61-1-10-141-K/23-son qaroriga
4-ilova

Parkent tumani budjetiga 2023-yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori

ming so`mda

T/r	Shahar va tuman nomi	Summa
1	Parkent tumani	88 557 491.0

Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-61-1-10-141-K/23-son qaroriga
5-ilova

Parkent tumani budjetida yo`l qo`yiladigan eng kam mablag` miqdori

ming so`mda

T/r	Shahar va tuman	Summa
1	**Parkent tumani**	**1 223 100.0**

Xalq deputatlari Parkent tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-61-1-10-141-K/23-son
qaroriga
6-ilova

Qishloq ho‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2023-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/P	MFY nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 Ga uchun		Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (so‘mda)
Parkent tumani, shu jumladan:		0,90	29 700,0	1,0	297,0
1.	Navro‘z MFY	1,15	34 020,8	1,1	326,7
2.	Istiqbol MFY	1,00	29 700,0	1,1	326,7
3.	Yoshlik MFY	1,00	29 700,0	1,0	297,0
4.	Buloqboshi MFY	1,15	34 020,8	1,2	356,4
5.	Markaziy MFY	1,15	34 020,8	1,0	297,0
6.	Guliston MFY	1,15	34 020,8	1,0	297,0
7.	Istiqlol MFY	0,97	28 705,1	1,1	326,7
8.	Qo‘rg‘on MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
9.	Yangiobod MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
10.	Davlatobod MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
11.	Shampan MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
12.	Boyqozon MFY	1,14	33 858,0	1,1	326,7
13.	Qo‘rg‘ontepa MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
14.	O‘choq MFY	1,15	34 020,8	1,1	326,7
15.	Yashnobod MFY	1,03	30 713,3	1,0	297,0
16.	Qayilma MFY	0,97	28 705,1	1,1	326,7
17.	Bog‘bon MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
18.	Gulbog‘ MFY	1,15	34 020,8	1,1	326,7
19	Objuvoz MFY	1,15	34 155,0	1,2	356,4
20.	Mozorxoji MFY	1,15	34 020,8	1,1	326,7
21.	Surxi MFY	1,00	29 700,0	1,1	326,7
22.	Xo‘ja MFY	1,15	34 020,8	1,1	326,7
23.	Tojiboy Rizayev MFY	0,97	28 705,1	1,1	326,7
24.	Qo‘lichi MFY	1,03	30 713,3	1,1	326,7
25.	Kumushkon MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
26.	Quruqsoy MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
27.	Cho‘qqayma MFY	1,03	30 713,3	1,0	297,0
28.	Bodomtepa MFY	0,97	28 809,0	1,0	297,0
29.	Oybek MFY	1,15	34 020,8	1,2	356,4
30.	Quyosh ShFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
31.	Bo‘rsiliq MFY	1,15	34 020,8	1,2	356,4

32.	Qo‘shshukur MFY	1,03	30 713,3	1,0	297,0
33.	Samarobod MFY	1,00	29 700,0	1,1	326,7
34.	Hurriyat MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
35.	Ulug‘bek MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
36.	Chashma MFY	1,15	34 020,8	1,0	297,0
37.	Chinor MFY	1,15	34 020,8	1,0	297,0
38.	Yangi Sanganak MFY	0,97	28 705,1	0,9	267,3
39.	Nevich MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
40.	Novdak MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
41.	Qizilsoy MFY	0,97	28 705,1	0,9	267,3
42.	Obod MFY	1,03	30 591,0	0,9	267,3
43.	Bozorboshi MFY	0,97	28 705,1	0,9	267,3
44.	Chinorli MFY	0,97	28 705,1	0,9	267,3
45.	Soy MFY	1,00	29 700,0	1,1	326,7
46.	Kichikqo‘rg‘on MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
47.	Chinorbuloq MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
48.	Teman MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
49.	Kungay MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
50.	Olmazor MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
51.	Nurobod MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
52.	Bo‘ston MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
53.	Qirg‘izovul MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
54.	Chotqol MFY	0,97	28 705,1	1,0	297,0
55.	Beshkappa MFY	1,03	30 713,3	1,0	297,0
56.	Oq tepa MFY	0,97	28 705,1	0,9	267,3
57.	Samsarak MFY	0,97	28 705,1	0,9	267,3
58.	Yangi Navbahor MFY	0,97	28 705,1	0,9	267,3
59.	Tolbuloq MFY	0,90	26 730,0	0,8	237,6
60.	Oydin MFY	0,90	26 730,0	0,8	237,6
61.	Said ota MFY	0,90	26 730,0	0,8	237,6
62.	Fayzobod MFY	0,90	26 730,0	0,8	237,6

Xalq deputatlari Parkent tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-61-1-10-141-K/23-son
qaroriga
7-ilova

Yuridik shaxslar bo`yicha mol-mulk soliqlari uchun qo`llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Shahar va tuman	Koeffitsient (mutloq miqdorlari)	Belgilangan qiymat (so`m)
1	Parkent tumani	0.90	900 000.0